

TALIM JARAYONIDA OQUVCHILARDA QADRIYATLARGA TAHLILIY MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROYITLARI

Azima Usenova

Qaraqalpaqstan Respublikasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15670477>

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadriyatlar, ularning turlari ham da har bir turning oziga xos tavsifi yoritilgan. Shuningdek, muallif qadriyatlarning shaxs va jamiyat madaniyati bilan aloqadorligi, falsafiy ijtimoiy jihatlari hamda qadriyatlarga oid yondoshuvlarni tahlil qilib otgan. Shuningdek qadriyat haqida turli olimlar fikri ham keltirib, keng yoritilgan.

Kalit sozlar: qadriyat, oquvchi, ijtimoiy munosabat, falsafa, sotsiologiya, ijtimoiy ong, madaniy qadriyat, obyekt, subyekt, ijtimoiy tajriba.

ТАКЖЕ ПРИВОДЯТСЯ И ШИРОКО ОСВЕЩАЮТСЯ МНЕНИЯ РАЗЛИЧНЫХ УЧЕНЫХ ОЦЕННОСТИ

Аннотация. В данной статья раскрыта сущность ценностей, их виды, охарактеризованы особенности каждого вида. Показана взаимосвязь личностных ценностей и культуры общества, проанализированы философские, социальные аспекты ценностей и подходы к их усвоению, обозначены ожидаемые результаты.

Ключевые слова: Ценности, учащийся, социальные отношения, философия, социология, общественное сознание, культурные ценности, объект, субъект, социальный опыт.

CONDITIONS FOR FORMING AN ANALYTICAL ATTITUDE TOWARDS VALUES IN STUDENTS DURING THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. This article reveals the essence of values, characterized by their species, the relationship of personal values and culture of the society, analyzed the philosophical and social aspects of values and approaches to their assimilation. The expected results are indicated.

Opinions of various scholars on value are also given and widely covered.

Key words: Values, student social relations, philosophy, sociology, social consciousness and cultural values, object, subject, social experience.

Bugungi kunda talim tizimida shaxsning manaviy kamolatiga erishuvni taminlash, yosh avlodga zamonaviy talimlar berish, ularning qobiliyati va intellektual salohiyatini ostitish uchun zarur bolgan barcha imkoniyatlarni yaratish.

Milliy va umumiy insoniy qadriyatlar ezgu fazilatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash dolzarblik kasb etmoqda.

Olam cheksiz, kop qirrali, uni insoniy ozlashtirish, anglash, unga munosabat bildirish ham xilma xil. Olamni qadriyatlar nuqtai nazardan qabul qilish va shu orqali tushunib yetish inson uchun xusisiyatdir. Olamga qadriyatli munosabat, qadriyatli yondashuv va aksiologik ongni ham ozida aks ettiradi. Aksiologik ong qadriyatlarni anglash jarayonida vujudga keladigan, qadrlash tuygusi, aksiologik tushuncha, xulosalarni ifodalaydigan va aks ettiradigan ijtimoiy ong shaklidir.

Unda qadriyatlar, ularning mohiyati, mazmuni, namoyon bolish shakllari, ahamiyati va xusisiyatlari oz aksini topadi.

Qadriyat-voqealikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy ijtimoiy-axloqiy, madaniy-manaviy ahamiyatini korsatish uchun qollanadigan tushuncha.

Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bolgan barcha narsalar, masalan erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, marifat, haqiqat, yaxshilik, gozallik, moddiy va manaviy boyliklar, anana, urf-odat va boshqalar hisoblanadi.

Talim jarayonida qadriyatlar oquvchilar tarbiyasiga oziga xos tarir korsatadi. Ular gohida ideal sifatida oquvchini omilkor faoliyatiga undasa, gohida manaviy mezon, axloqiy talab sifatida ularning xatti-harakati va adob axloqi, intilish va ehtiyojlarini belgilaydi. Shuningdek faoliyatlarni boshqarib yolga solib turadi.

Bunda qadriyatlarning boshqaruv funksiyasi va manaviy mezoni sifatidagi ahamiyati yaqqol namayon boadi.

Maktabdagi ijtimoiy-meyorlar va urf-odatlar maktabda oqituvchilar tomonidan belgilanadi va bolalar tomonidan ularning xatti harakatlari normalari va ananalari sifatida aniq qabul qilinadi. Oqituvchi bolalarga beradigan meyorlar va urf-odatlarni bilish, bilimlarni bola tomonidan qabul qilinishi, hissiy darajada tajribaga ega va ozini tutishi bilan maktab oquvchilarining ortasida ijtimoiy ahamiyatli munosabatlarni rivojlantirish mumkin.

Bolajak yetuk shaxsni tarbiyalash bilan bogliq pedagogik hodisani etibordan chetda qoldirib bolmaydi.

Bu murakkab va kop qirrali ijtimoiylashish jarayoni-ijtimoiy pedagogik qadriyat sifatida alohida etiborni talab qiladi.

Qadriyatlardan ijtimoiy hamda pedagogik munisabatlarni tashkil etish jarayonida foydalanish, oquvchi tomonidan talim mazmuni, uning jarayonlarini optimal ozlashtirish imkoniyatlarini beradi. Pedagogik jarayonda oquvchilarda qadriyatlarga tahliliy munosabatlarni shakllantirish talimiy va tarbiyaviy muammolarni hal etishga asos bolib xizmat qiladi. Talimdagi yangi qadriyatlar shaxsning pedagogik faoliyatida ijody imkoniyatlarini faollashtirishga yordam beradi.

Oquvchilar uchun analitik konikmalar muhim ahamyatga ega, chunki ular talim- tarbiya jarayonidagi yuzaga keladigan muammolarga yeshim topishga va kelgusida qanday choralar korish togrisida aniq qarorlar qabul qilishga imkon beradu.

Muammolarni tushunish va mavjud yeshimlarni topish uchun vaziyatni tahlil qilish asosiy masala hisoblanadi.

Tahlil-arabcha sozdan olingan bolib, tarqatish (kurtak yozish), tekshirish, surishtirish, hal qilish, ochish degan manolarni anglatadi. Tahlil bu narsa, hodisa va shu kabilarni mohiyat, qonuniyat va boshqa jihatlardan tekshirish, organish ishidir. Shuningdek tahlil tushunchasi biror narsaning tarkibini belgilash va uning malum nuqtai nazardan organish, baholash jarayonidir.

Oquvchilarda qadriyatlarga tahliliy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida yaratilgan shart-sharoitlar ular uchun shaxsiy sifatlarini mustaqil rivojlantirishga imkoniyat yaratishi bilan bir qatorda, oquvchilarni har bir malumotlarini analiz-sintez qilishga undovchi motivlashtirish muhiti sifatida ham xizmat qilishi kerak.

Tahliliy konikmalarni qollash jarayonida odatta bir necha bosqichlarni oz ichiga oladi. Shu jumladan:

1. Mavzu, muammo yoki masalani aniqlash.
2. Sinov va kuzatish orqali malumot toplash.
3. Yeshimlarni ishlab chiqish yoki mavzu boyisha tushunchalarni chuqurlashtirish.
4. Organgan narsa asosida yeshimlarni yoki yangu goyalarni, tushunchalarni sinovdan otkazish.

5. Yangi bilimlarini baholash va qollash uchun tahlildan keyin qanday yeshimlar ishlab chiqilganligini korib chiqish mumkin.

Oquvchilarda inson hayotiga oz-ozini rivojlantirishga, mehnatga dostlikka nisbatan qadriyat hamda uni amalga oshirishda majmuaviy metodlardan foydalanish manaviy barkamol shaxsni tarbiyalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Manaviyat asosiy tushunchalar izohli lugati. T.G.Gulom nashriyoti 2010.
2. Ozbek tilining izohli lugati 4-jild, 41-bet.
3. Ozbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 10-jild. Sharq-Qizilqum. "Ozbekiston Milliy Ensiklopediyasi" nashriyoti 2005.
4. Вебер М. Избранные произведения. Прогресс 1990.
5. Usenova A. CONTEMPORARY PERFORMANCE TRADITIONS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 615-618.
6. Usenova A. ATQARIWSHILIQTA NÁPES ALIW USHIN SHINIǴIWLAR //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 10. – C. 191-196.
7. Azima U. THE ROLE OF MUSIC IN THE EDUCATIONAL PROCESS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 190-193.